

USA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

25 APRIL
2024 YEAR

USA, WASHINGTON



INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

**Part 40
APRIL 2024
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

Washington, USA
25th April 2024

Ibrohimova Zilola Anvarjon qizi "SAB'AI SAYYOR" DOSTONI. HIKOYALAR TAHLILI.	
Sharopova Husnidaxon ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING G'OYAVIY BADIY XUSUSIYATI	576
Леи Донг Бухарова Фарида Мирхаликовна "НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА"	582
Jamilova Aziza Ulug'bekovna TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	586
Saidova Xurshida Faxriddin qizi MUSTAQILLIK DAVRI AYRIM QISQARTMA OTLARNING TARKIBI VA MAZMUNI HAQIDA	590
Safoyeva Farangiz Obidjon qizi PHONETIC, PHONOLOGICAL, GRAMMATICAL, SEMANTIC, ETYMOLOGICAL, LEXICAL AND STYLISTIC PECULIARITIES OF COMPARED LANGUAGES	596
Mo'minova Mehriniso Habibjon qizi DUNYO TILLARI	608
Qurolov Doston Ilxomiddin o'g'li CHIRCHIQ-OHANGARON HAVZASI DARYOLARI OQIMINING HOSIL BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IQLIMIY OMILLAR.	611
A'zamov Valixon Fayzullayevich PROBLEMS AND SOLUTIONS OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES	617
Amonova Feruza Sadullaevna NEW BUKHARA - THE INDUSTRIAL CITY OF BUKHARA EMIRATE	621
Xushboqova Melixol Odiljon qizi Muzaffarova Sevinch Nizomiddin qizi INGILIZ TILIDAGI BA'ZI OMONIM SO'ZLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR	625
Baxriddinova Dilnora Sharifjon qizi Abdug'aniyeva Moxiraxon Alijon qizi IKKILAMCHI POLIMER CHIQINDILARDAN UNIVERSAL QURILISH YELIMINI OLISH TEXNALOGIYASI	628
I.N.Niyozova	634

U.Shodibekov RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOJXONA TIZIMINI AVTOМАTЛАSHТИRISH	
Muxamedov Sulaymon ISHSIZLIK, UNING OQIBATLARI VA OLDINI OLİSH YO'LLARI	639
Giyazova N.B. Doniyorov Mirshod DAVLAT BUDJETI TAQCHILLIGI:NAZARIYA VA AMALIYOT	644
Giyazova B.B Hamidov Fozilbek MAMLAKATIMIZDA TASHQI SAVDONI ERKINLASHTIRISH VA TO'LOV BALANSI BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	650
Khurshida Ashurova EXPLORING NEOLOGISMS IN YOUTH PRESS: A COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH	656
Tilavoldiyeva D.X Habibullayev N.U Ro'zimatov K.X ZAMONAVIY BIOTEXNOLOGIYANING TARAQQIYOT YO'LI	660
Jo'rayeva Mehriniso Safar qizi Ergasheva Dilrabo Allanazarovna BADIY MATNDA DIALEKTAL LEKSIKANING QO'LLANILISHI(TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI MISOLIDAI)	664
Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi Umurqulov Bekro'lat MONOLOGIK VA DIOLOGIK NUTQ	667
Жумаев Умиджон Ғофир ўғли ОЗИҚ-ОВҚАТДА ХАЙВОН ВА ЎСИМЛИК ЁҒЛАРИНИ ФОЙДАЛАНИШДА ТҮҒРИ ТАЪМИЛАШНИНГ АМАЛИЙ АХАМИЯТИ	672
Жумаев Умиджон Ғофир ўғли УРУҒЛАРНИ ТОЗЛАШДА ХАРОРАТ ВА НАМЛИКНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ РАФИНАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИНИ АМАЛИЙ АХАМИЯТИ	677
Сайдов Абди Норқобилов А, Ибрагимов Қ, Қурбонов М МОЙЛАРНИ РАФИНАЦИЯЛАШДА ИШҚОРИЙ	680

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOJXONA TIZIMINI
AVTOMATLASHTIRISH**

I.N.Niyozova

BuxDU, Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

U.Shodibekov

BuxDU, iqtisodiyot yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola bojxona tizimining yagona avtomatlashgan axborot tizimi, bojxona faoliyatlari jarayonlarini boshqarishning avtomatlashgan tizimiga oid tahliliy munosabatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va boshqa zamonaviy texnologiyalar bojxona ma'muriyatiga taqdim etilayotgan imkoniyatlar va muammolar muhokama qilinadi. Yagona avtomatlashgan axborot tizimini keng joriy etishga oid muhim taklif va xulosalar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Bojxona, AKT, bojxona organlari, bojxona nazorati, deklaratsiya, YAaaT, tovarlar va transportlar.

Kirish. Iqtisodiy-matematik usullar va hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanishning muhim yo'nalishlaridan biri boshqaruvning avtomatlashgan tizimini barpo etish bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot doirasida bojxona sohasini raqamli transformatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriatchiliginis isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-sun Farmonida nazarda tutilgan bo'lib: Bojxona ma'muriatchiliginis isloh etish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish, "qog'ozsiz va elektron bojxona"ning mantiqiy davomi va rivojlanishi bo'lgan "raqamli bojxonani" shakllantirish, shuningdek, bojxona ishi sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni jadallashtirish maqsadi ko'zda tutilgan⁹⁰. Respublika Davlat bojxona qo'mitasining yagona avtomatlashgan axborot tizimi, bojxona faoliyatlari jarayonlarini boshqarishning avtomatlashgan tizimidan iboratdir. Respublika bojxona xizmatining YaAAT ning asosiy vazifasi davlatning yagona bojxona siyosatini va bojxona organlarini boshqarishning amalga oshirish hamda uning samaradorligini shakllantirish hisoblanadi. YaAAT bojxona xizmatining

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 iyundagi "Bojxona ma'muriatchiliginis isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-sun farmoni


asosiy axborot texnologiyasini amalga oshirish vositasi deb tushuniladi. YaAAT ning rivojlanishi, bu soha bo'yicha yangi axborot texnologiyalarining bosqichma – bosqich yaratilishi va joriy qilinishi sohalarining zamonaviy – texnikaviy komplekslarga asoslangan jarayonlardir. Yuqorida bayon etilganlarga Bojaxona boshqaruvi va raqamlashtirish asoslanib, respublika Davlat bojaxona qo'mitasining YaAAT vazifalari quyidagilardan iborat:

- Respublika Davlat bojaxona qo'miasi bo'linmalari va hukumat organlarini bojaxona statistikasini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan taominlash;
- bojaxona organlarini boshqarishning barcha bo'g'inlarida tashkiliy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish;
- tovarlarning hujjalarni rasmiylashtiriluvini avtomatlashtirish;
- chegaradan o'tayotgan yo'lovchilarning yuklarini bojaxona nazoratindan o'tkazishning samaradorligini oshirish;
- bojaxona to'lovlarini hisoblashni nazorat qilish va markazlashgan holda, ularni undirib olishni ta'minlash;
- kontrabanda va bojaxona qoidalarini buzishga qarshi kurash ishlarini ma'lumotlar bilan qo'llab-quvvatlash;
- notarif ravishda tartibga solish, ruxsatnomalar va cheklashlarni nazorat qilish usullari va vositalarini takomillashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning bojaxona bank nazoratida valyuta nazoratida amalga oshirish maqsadida va boshqalarda axborot texnologiyasini yaratish.

Respublika bojaxona xizmatining YaAATiga asosan respublikaning mustaqillikka erishganidan so'ng rivojlanib, bojaxona axborot texnologiyasining barcha bosqichlarida bojaxona postidan Davlat bojaxona qo'mitasining markaziy apparatigacha bo'lgan rivojlanishning ajoyib vositasiga aylanadi. DBQ yagona avtomatlashgan axborot tizimining keyingi rivojlanish va takomillashish asoslaridan biri, respublika bojaxona siyosatini ketma – ket va bosqichma-bosqich ahamiyatini oshirishning kompleks dasturi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. YaAAT o'xshash tizimlar barcha rivojlangan mamlakatlarning barcha bojaxona xizmatlarida mavjuddir. Masalan, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarida bunday tizimlar bojaxona qoidalariga moslashtirish asosida 20 yildan ortiq vaqt ichida yaratilib foydalaniloqda. YaAATning bosqichma-bosqich dasturini amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish uchun DBQ qoshida Bosh ilmiy-axborot hisoblash markazi (BIAHM) tashkil qilinib, YaAATni yaratishni joriy qilish va

foyдаланишни ташкил қилиш ўзасидан илмиy ишлаб чиқарish ташкiloti hisobланади. 2020-yildagi COVID-19 epidemiyasi butun dunyo uchun AKT foydasini yana bir bor tasdiqladi. Ma'lumotlarni tez va aniq tahlil қилиш soyosati Xitoya soatiga 16 000 paketni qayta ishlashga o'z faoliyatini yo'naltirdi. Bojxona olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning "xilma-xilligi" deyarli hayratlanarli va tushunarsiz nisbatlarga etadi, masalan, tuzilmagan va yarim tizimli skanerlangan hujjatlar, rentgen tasvirlari, video tasmalar va GPS ko'rsatkichlari.



1-rasm.Bojxona tizimida risklarni boshqarish tizimi

So'nggi yigirma yil ichida mintaqaviy savdo bitimlari (RTA) soni sezilarli darajada oshdi. RTA - bu ikki yoki undan ortiq sheriklar o'rtasidagi o'zaro imtiyozli savdo shartnomalari bo'lib, ular JST tomonidan ma'lum qoidalarga muvofiq ruxsat etiladi. JST ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil fevral holatiga ko'ra, 321 ta ana shunday bitimlar, 2000-yildan beri 242 tasi amalda bo'lgan. Ushbu bitimlarning faqat 17 tasi bojxona ittifoqidir.

Takliflar. Robotik jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA) biznes-jarayonlarni avtomatlashtirishning yangi shakli bo'lib, u mashina yoki dasturiy ta'minotning oldindan dasturlashtirilgan vazifani takroriy, lekin odamlarga qaraganda ancha yuqori samaradorlik bilan bajarish qobiliyatidan foydalananadi. Bulutli hisoblash - bu foydalanuvchi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri faol boshqaruvsiz kompyuter tizimi resurslarining, ayniqsa ma'lumotlarni saqlash va hisoblash quvvatining talab bo'yicha mavjudligi. Bulutli hisoblash dasturiy ta'minot ilovalarini ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq moliyaviy va infratuzilmaviy muammolarni samarali hal qildi, chunki u ilgari talab qilinadigan umumiy egalik xarajatlarini yengillashtiradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagi takliflar mavjud :

- bojxona jarayonlari, texnologiyalari, normativ asoslarni va hujjatlarni shakllar va standartlarga keltirish;
- bojxona baholash holatlari va tovarlarning yangi xillarini yaratishda ob`ektiv o`lchovlarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- tovarlarni tekshirib chiqish va rasmiylashtirish jarayonlarini alohida ajratilgan holda o'tkazish;
- vaqt jihatidan uzoq nazorat muddatini talab etadigan tovarlarni kuzatish va nazorat tizimini yaratish (vaqtinchalik olib kelish, olib chiqish, reeksport, barter jarayonlari, va boshqalar);
- xodimlarni eskilikka xos jarayonlar bilan band qilish darajasini kamaytirish, bojxona organlari xodimlarini tashqi iqtisodiy faoliyatning turli xildagi holatlarini chuqur va mazmunli tahlil qilishga yo'naltirish, hisob-kitob hujjatlarini tuzishda mehnat sarfini kamaytirish bilan birgalikda ularning puxtaligini oshirish

Xulosa. Bojxona ma'muriyatlari nafaqat deklaratsiyani qayta ishlash, balki ichki operatsiyalar va boshqaruvi qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun mavjud va yangi AKT tizimlarining imkoniyatlardan to'liq foydalanish orqali o'z faoliyatini yaxshilashi mumkin. Bunda bojxona ma'muriyatlari rahbariyati AKT faollashtiruvchi ekanligini bilishi kerak, shuning uchun AKT bo'yicha rejalarни umumiy strategik rejani qo'llab-quvvatlovchi yaxlit tarzda hal qilish, shuningdek, to'plangan ma'lumotlar va ma'lumotlarning keng omboridan foydalanish zarur. Shunday qilib, bojxona ma'muriyatlarining yuqori rahbariyati ularning murakkab tashkilotlarini raqamli transformatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Yuqori rahbariyat tegishli tuzilmalarga egalik qilishi va tashkil etishi, AKT va raqamlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarning strategik yo'nalishlarga mos kelishini ta'minlash uchun zarur nazorat mexanizmini yo'nga qo'yishi, zarur byudjet va huquqiy yordam bilan ta'minlashi, bu ish uchun mas'uliyatni to'g'ri belgilashi va pirovardida erishilgan natijalar uchun javobgar bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
2. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

3. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.
4. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).
5. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1616-1620).
6. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
7. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. Miasto Przyszłości, 84-86.
8. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
9. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. European journal of business startups and open society, 3(12), 154-157.
10. Niyozova, I. (2024). Improving the use of marketing strategies of enterprises in social networks. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 45(45). Извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11592
11. "The 4 faces og digital marketing" American Marketing Association. August 22, 2019.
12. Сайфуллаева, М. (2022). Инновационные маркетинговые решения и их эффективность в определении ёмкости рынка строительной продукции. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 25(25).

ISHSIZLIK, UNING OQIBATLARI VA OLDINI OLISH YO'LLARI

Muxamedov Sulaymon

Buxoro davlat Universiteti

Iqtisodiyot kafedrasi

katta o'qituvchisi(Phd) Giyazova N.B.

"Iqtisodiyot va turizm'" fakulteti

3-1 Iqt-20 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqola ishsizlik tushunchasi , ishsizlik turlari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Maqola, shuningdek, mehnat bozoridagi talab va taklif, ishsizlikka oid ayrim holatlar va ularga qo'llanilgan yechimlar, hozirgi paytda sodir bo'layotgan ishsizlikning sabablari va ularni bartaraf etishga yondashilgan yechimlarni bayon etadi.

Tayanch so'zlar: ishsizlik , talab va taklif , investitsiya , iqtisodiy o'sish , inflatsiya, mehnat bozori.

Ishsizlik bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi. Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.Amaldag'i iqtisodiy hayotda Ishsizlik ish kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi. Ishsizlik sababi turlicha: texnika rivojlanish bilan mehnat unumdarligi ortadi, ishchi kuchi kam mehnat talab bo'lib qoladi. Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati buziladi, tovarlarga bozor talabining qisqarishi ish kuchiga talabni ham qisqartirib yuboradi, natijada ish kuchining bir qismi ortiqcha bo'lib qoladi; iqtisodiyot rivojlanishi bilann malakali ish kuchiga talab oshib, malakasizlar kerak bo'lmay qoladi; aholi ishchilarga nisbatan tez o'sgan kezlarda, uning bir qismi ortiqcha bulib, ishsiz qoladi.

Ishsizlik bozorda mehnat taklifining unga bo'lgan talabdan ortib ketishi natijasida ishlashga qobiliyati va ishtiyoqi bor kishilarning bir qismini ish topa olmay bekor qolishidir .Ishsizlik mehnat bozoridagi muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Ishsizlikni ham talab, ham taklif yuzaga keltiradi. Ishsizlik o'zining kelib chiqish sabablari va davomiyligiga ko'ra turli shakllarga ega bo'ladi.

1. Friksion ishsizlik — bu mehnatga layoqatli kishilarning ish o'rmini almashtirishi munosabati bilan vaqtincha bekor yurishi. Mehnat bozorida